
"YONG'INDAN OGOHLIK" UMUMIMILLIY KAMPANIYASI SO'X TUMANIDA



"Yong'indan ogohlik" umumimilliy kampaniyasi So'x tumanida

"Yong'indan ogohlik" umumimilliy kampaniyasi doirasida So'x tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi hamda doimiy tayyorgarlikdagi xizmatlar ishtirokida yong'in o'chirish taktik amaliy mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi davomida, shaxsiy tarkibning jangovar shayligi, hamkorlikdagi xizmatlarning sodir bo'lgan yong'in va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishdagi harakatlari sinovdan o'tkazildi. Shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inda qolib ketgan fuqarolar xavfsiz hududga olib chiqilib, birinchi yordam ko'rsatildi va tez tibbiy yordam xodimlariga topshirildi.

Bu kabi hamkorlikdagi amaliy taktik o'quv mashqlari belgilangan rejaga asosan, viloyatimizning barcha shahar va tumanlarida davom ettirilmoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-19 18:36:53